

Mechanism Of Formation and Future of Development of Free Economic Zones in Agriculture of Uzbekistan

Amanov A.K

Urgench State University

Lecturer at the Department of Geodesy, Cartography, Geography

Atayeav N.P

Urgench State University

Lecturer at the Department of Geodesy, Cartography, Geography

Bozorova N. O.

Urgench State University

2nd year student of geography

O'zbekistonning Qishloq Xo'jaligi Sohasidagi Erkin Iqtisodiy Zonalari Shakllanishi Mexanizmi Va Rivojlanish Istiqbollari

Amanov A.K

Urganch davlat universiteti

"Geodeziya, kartografiya, geografiya" kafedrası o'qituvchisi

Atayeav N.P

Urganch davlat universiteti

"Geodeziya, kartografiya, geografiya" kafedrası o'qituvchisi

Bozorova N. O.

Urganch davlat universiteti

Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotation: This article describes the Bukhara-Agro, Kasan-Agro and Karakalpak-Agro Free Economic Zones (hereinafter referred to as FEZs) established in Uzbekistan and their role in the country's economy, in particular in agriculture. It is considered. In particular, in these FEZs to attract foreign and domestic direct investment to organize modern greenhouses, including hydroponic technologies, on a cluster basis, as well as agricultural products. issues of environmental protection in the process of cultivation and processing.

In recent years, the country's population has been growing steadily, land and water resources have been declining for various reasons, the demand for agricultural food products has increased, and the government has been asked to ensure food security. puts.

This article aims to address the above issue, albeit partially, to enhance the role of agro-economic FEZs in the agricultural sector in the country's economy and to create new economic zones in this area.

While highlighting the importance of our goal in this regard, the following tasks have been set:

- Disclosure of the benefits of the organization of agro-economic free economic zones;
- employment and living standards of the population;
- regional economic growth through the establishment of agro-economic free economic zones;

In declaring these goals and objectives, decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, as well as decisions of the Cabinet of Ministers, as well as various scientific works and literature were used, as well as research methods such as geographical comparison, systematic content, cartography and balance.

During the study of the topic, the necessary proposals and recommendations were made in the field of agriculture, established in our country, in these SEZs "Bukhara-agro", "Koson-agro" and "Karakalpak-agro".

Keywords: Agro-economic free economic zone, preferential customs duties, tax incentives, investment,

modern greenhouses, hydroponic technologies, agricultural diversification, logistics services, agricultural exports, agritourism.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda tashkil qilingan "Buxoro-agro", "Koson-agro" va "Qoraqalpoq-agro" erkin iqtisodiy zona(keyingi o'rinlarda EIZ)lari va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi, xususan, qishloq xo'jaligidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, mazkur EIZlarda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini, jumladan, gidroponika texnologiyalarini qo'llagan holda, ularni klaster usuli asosida tashkil etish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash jarayonida atrof-muhit muhofazasi masalalariga to'xtalib o'tiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz aholisi sonining doimiy ravishda ko'payishi, yer va suv resurslarining esa turli sabablarga ko'ra, tobora kamayib borayotgani, qishloq xo'jaligidagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, hukumatimiz oldiga oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash masalasini qoymoqda.

Ushbu maqolada yuqoridagi masalani qisman bo'lsada yechimi sifatida, qishloq xo'jaligi sohasidagi agroiqtisodiy EIZlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni yuksaltirish va yangidan-yangi shu yo'nalishdagi iqtisodiy zonalarni bunyod qilishini ochib berish maqsad qilingan.

Bu borada maqsadimiz ahamiyatini ko'rsatish asnosida, quyidagilar vazifa qilib qo'yildi:

- agroiqtisodiy EIZlar tashkil qilishning foydali tomonlarini ochib berish;
- aholining ish ta'minlanishi va turmush darajasini yuksalishi;
- agroiqtisodiy EIZlar tashkil qilish asnosida mintaqalar iqtisodiyoti o'sishi;

Mazkur maqsad va vazifalarni ochib berishda, mavzuga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari, hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar, shuningdek turli ilmiy ishlar va adabiyotlardan foydalanildi, hamda geografik taqqoslash, tizimli-tarkib, kartografik va balans usuli kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Mavzuni izchil o'rganish asnosidamamlakatimizda tashkil qilingan qishloq xo'jaligi sohadagi, ushbu "Buxoro-agro", "Koson-agro" va "Qoraqalpoq-agro" EIZlariga doir kerakli taklif va tavsiyalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: agroiqtisodiy erkin iqtisodiy zona, imtiyozli bojxona to'lovlari, soliq imtiyozlari, investitsiya, zamonaviy issiqxona xo'jaliklari, gidroponika texnologiyalari, qishloq xo'jaligi diversifikatsiyasi, logistika xizmatlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti, agroturizm.

Kirish.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish, keng iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Mahalliy va tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ta'minlaydigan zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish, hamga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari, hamda Qoraqalpoq'iston Respublikasining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida mamlakatimizda "Buxoro-agro", "Koson-agro" va "Qoraqalpoq-agro" EIZlari bunyod qilingan.

"Buxoro-agro" EIZ tarkibiga kiritilgan yer maydonlari Buxoro viloyati Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari ma'muriy kengashining bevosita tasarrufida bo'ladi;

- "Buxoro-agro" EIZning faoliyat ko'rsatish muddati u tashkil etilgan kundan boshlab, mazkur muddatni keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi;
- "Buxoro-agro" EIZning faoliyat ko'rsatishi muddati mobaynida uning hududida alohida soliq va bojxona rejimlari amal qiladi;
- "Buxoro-agro" EIZ ishtirokchisi maqomi Buxoro viloyati Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari ma'muriy kengashining qarori bilan beriladi. [1]

Ushbu EIZlarida ham turli darajadagi bojxona to'lovlarida va soliq imtiyozlari berilgan bo'lib, ular mahalliy va xorijiy investorlar uchun bir qator qulayliklarni yaratib beradi.

Metodlar.

Ushbu mavzuni yoritib berish davomida geografik taqqoslash, tizimli –tarkib, kartografik kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Geografik taqqoslash usuli- bu usul taqqoslanayotgan obyektlar uchun umumiy va o'ziga xos tomonni ochib beradi. Ammo taqqoslash usulida, eng avvalo, ikki jihatga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, taqqoslanayotgan obyektlarning katta-kichikligi, o'z ko'lami jihatidan bir-biriga ma'lum darajada teng bo'lishi shart [2].

Aynan, geografik taqqoslash usuli yordamida mazkur EIZlarning maydon kattaligi va o'zlari tashkil qilingan mintaqalar bo'yicha filiallarining yoyilish ko'lami o'rganildi (1-jadvalg qarang).

O'rganilayotgan mavzuni ochib berishda yana tizimli-tarkib tadqiqot usulidan ham foydalanildi, negaki EIZlar rivojlanishi ular joylashgan viloyatlar xo'jaligi tarkibini yaxlit ravishda rivojlanganligiga bog'liq bo'lib, bu esa mintaqalarni tizimli ravishda o'rganishni talab etadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tashkil qilingan agro EIZlari

T/R	EIZ nomi	Tashkil qilingan sana	Maydoni	Filiallari soni
1.	“Buxoro-agro”	2018 yil 10-iyul	3 ming ga	5 ta Jondor, Kogon, Peshku, Romitan va Buxoro tumanlarida
2.	“Koson-agro”	2018 yil 13-noyabr	5 ming ga	1 ta Koson tumani “Turon” hududida
3.	“Qoraqalpoq-agro”,	2020 yil 11-noyabr	875,4 ga	12 ta Amudaryo, Bo'zatov, Kegeyli, Qonliko'l, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Nukus, Taxiato'sh, To'rtko'l, Xo'jayli, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida

Jadval .

Muallif tomonidan 3,4 va 5 adabiyotlardan foydalangan holda tuzildi.

Tizimli-tarkib usulida yana bir nazariy tushuncha mavjud. I.M. Maergayzning fikricha iqtisodiy va sotsial geografiya xalq xo'jaligini hududiy tarkibini o'rganishi lozim. Bu tarkib to'rt xil bo'ladi: moddiy ishlab chiqarish, aholi va aholi punktlarining hududiy joylanishi, ularning o'zaro munosabati, tabiiy sharoit va boylik hamda ishlab chiqarish infrastrukturasi iborat [3].

Darhaqiqat, mamlakatimizda agroiqtsodiy EIZlar tashkil qilishdan asosiy maqsad ham, moddiy ishlab chiqarish ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ichki bozorlar uchun yohud, tashqi bozorlarga eksport qilish uchun yetishtirishni ko'zlangan. Shu bilan birga mazkur agroiqtsodiy zonalar aholi va uning joylashuviga bog'liq holda, o'zi uchun zarur bo'lgan arzon ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi hamda ularni ish bilan bandligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda tashkil qilingan “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-Agro” EIZlar, ular tashkil qilingan mintaqalarning tabiiy sharoiti va mavjud ishlab chiqarish infrastrukturasi bog'liq ravishda taraqqiy etadi. Ayni paytda ularning jadal rivojlanishga yana to'g'ri olib boriladigan islohatlar va mahalliy va xorijiy investitsiyalar miqdori ham sabab bo'ladi.

Balans usuli- iqtisodiyot tarmoqlari, tarmoqlararo, ijtimoiy sohalarda doimo o'zgarib turuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar muvozanatini ifodalovchi tizimdir. Bu usul orqali jahon xo'jaligi, iqtisodiy rayon va mamlakat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlari tarmoqning iqtisodiy rayon va mamlakat xo'jalik ixtisoslashuvida tutgan o'rni, itiqbolda rivojlanishi hamda iqtisodiy rayonlarning shakllanishidagi o'rni tadqiq qilinadi [3].

Balans usuli qaysi-ki ma'noda, kirim-chiqim muvozanatini anglatib “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-Agro” EIZlarga kiritilgan sarmoyalarning nima uchun sarflanganligi yoki, yetishtirilgan mahsulotlar uchun sarf qilingan harajatlarni ularni sotishdan tushadigan mablag'larni taqqoslash orqali balanslashtirish mumkin.

Natijalar.

Mamlakatimizda tashkil qilingan “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-Agro” EIZlarning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-Agro” EIZda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini, jumladan, gidroponika texnologiyalarini qo'llagan holda, klaster usuli asosida tashkil etish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etish, shuningdek, zamonaviy energiya tejavchi issiqxonalar qurish uchun konstruksiyalar, jihozlar va boshqa butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

“Koson-agro” va “Qoraqalpoq-Agro” EIZda qishloq xo'jaligida yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish hamda tarkibiy o'zgartirish, bunda tumanlardagi unumdorligi past, kam hosilli yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

-hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ishlashni chuqurlashtirish va ularning eksport hajmini oshirish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning urug'dan to mahsulotni bozorga etkazib berishgacha bo'lgan to'liq jarayonini tashkil etishni ag'batlantirish;

ko'chatzorlar, shuningdek, birlamchi urug'chilikni tashkil etish uchun sharoitlar yaratish orqali issiqxona xo'jaliklarini talabi katta, yuqori hosildorlikka ega bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlari urug' va ko'chatlari bilan ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish;

-qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalarini qo'llagan holda, klaster usuli asosida tashkil etishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb qilish, shuningdek, zamonaviy energiya tejavchi issiqxonalar qurish uchun konstruksiyalar, jihozlar va boshqa butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

-logistika xizmatlari ko'rsatishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sub'ektlariga ular tomonidan etishtirilgan mahsulotlar eksportini tashkil etishda ko'maklashish;

-issiqxona xo'jaliklarini tashkil etishda zamonaviy resurs tejavchi texnologiyalarni, muqobil issiqlik energiyalardan foydalanishni keng joriy etish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning xulosalari xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

-issiqxona xo'jaliklari sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, jumladan, ular tomonidan “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlar hududida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashda ishtirok etish kabilar belgilab berildi [4].

Yuqoridagi vazifalarni bajarish borasida “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlar turli darajadagi loyihalaramalga oshirildi.

Birgina “Buxoro-agro” EIZda Turkiya investitsiyasi ishtirokida “Buxoro-Varnet” korxonasi tomonidan 115 gektar maydonda oynavand issiqxona bunyod qilindi. Uning afzaligi shundaki, oyna quyosh nurini 97 foizgacha o'tkazadi, uzoq yillar davomida foydalanish imkonini beradi va issiqxonadagi har bir gektar yerdan 300 tonnadan 560 tonnagacha pomidor hosili yetishtiriladi.

Munozara.

“Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlarda qishloq xo'jaligidagi unimsiz yerlardan foydalanish imokinini tig'ilishi hamda katta miqdordagi suv resurslarni tejalishi kabi muammolarning o'z yechimimning topishi qaysiki ma'noda, ushbu agroiqtisodiy zonalarda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi evaziga bo'lib, u yerda gidroponika usulidan foydalanuvchi issiqxonalarni, yangi navlarni yaratish yohud chet ellardan olib kelish orqali intensiv bo'glarni bunyod qilinishidir.

Mazkur “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlarda keng ko'lamda turli loyihalarni amalga oshirilishi, aholining ma'lum bir qismining ish ta'minlanishi va ishsizlik muammosini hal qilinishi, shuningdek ularning turmush darajasini yuksalishini ta'minlab beradi.

Shuningdek “Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlar mamlakatimizning ular tashkil qilingan mitaqaalari iqtisodiyotining o'sishiga ham olib keladi, negaki ularda yetishtirilgan qishloq

xo'jaligi mahsulotlari ancha yuqori narxlarda, xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi, bu esa mazkur yo'nalishda yanada ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga turtki bo'ladi.

Xulosa.

“Buxoro-agro”, “Koson-agro” va “Qoraqalpoq-agro” EIZlar mamlakatimiz iqtisodiyotida, xususan qishloq xo'jaligida yangi bir yo'nalish bo'lib, ularning bevosita rivojlanishi xorijiy va mahalliy investitsiyalar ko'lamiga va shu bilan birga kiritilgan investitsiyalar to'g'ri sarflanishga yo'naltirishga bog'liqdir. Mamlakatimiz bo'yicha aynan shunday EIZlarni sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lib ularda, turli hil qishloq xo'jaligi mahsulotlarni yetishtirish, hamda yetishtirilgan hosilni jahon andozalari darajasida chuqur qayta ishlash va xorijiy mamlakatlarga eksport qilish yo'llarni izlab topish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning hammasi mamlakatimizda qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishiga sabab bo'ladi, shuningdek, qishloq xo'jaligidagi EIZlar faoliyati bilan tanishuvchilar uchun agroturizmni ham rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu iqtisodiyotimizni, xususan qishloq xo'jaligini ma'lum darajada rivojlanishi ta'minlab beradi.

Adabiyotlar.

1. “Buxoro-Agro” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida
2. A.S. Soliyev, N.K. Komilova, S.I. Yanchuk, Sh.Z. Jumaxanov, F.T. Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. T.: Noshir 2019. 498 bet.
3. Nazarov M., Tojiyeva Z. Ijtimoiy geografiya. Toshkent 2003. 319bet.
4. lex.uz